

20-Aprel, 2025-yil

**O’ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING  
ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich**

*Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Mustaqil tadqiqotchisi,*

Mamlakatimizda Yangi O’zbekistonni barpo etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini, jumladan ularning institusional va funksional mexanizmlari takomilashtirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasining “2022 — 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “...iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko’paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish<sup>1</sup>”, kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish” vazifalari belgilab berilgan. Bundan kelib chiqqan holda aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruvni joriy etishda qonunchilik-me’yoriy bazasining takomillashtirish, davlatning ishtirokini kamaytirib borish, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari faoliyatining mustaqilligi va fond bozorlarida erkin harakatlarini ta’minalash, aksiyadorlik kengashlari faoliyatini shaffof va bozor tamoyillari asosida qarorlar qabul qilishini ta’minalash, korporativ boshqaruvda innovation yechimlar ishlab chiqish, aksiyadorlik jamiyatlarida ijro organlari faoliyati samaradorligini oshirish, kuzatuv kengashlari faoliyati samaradorligini baholashga va bu jarayonlarga raqamli texnologiyalarni jalb qilishga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish kabi yo’nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda «Raqamli O’zbekiston – 2030» dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o’stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi<sup>2</sup>, - deb belgilab bergen ustuvor vazifalari iqtisodiyotning real tarmoqlarini innovation rivojlantirishda axborot-kommunikasiya texnologiyalari samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida korporativ boshqaruvda axborotlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar, jumladan, investor (bo'lajak aksiyador)lar uchun qulay vaqtida aksiyadorlik jamiyatlaridan moliyaviy hisobtlarni, kerakli ma'lumotlarni olish tizimini xalqaro standartlar asosida tadqiq etish hamda jamiyat boshqaruvida aksiyadorlarning kompleks aralashuvini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bundan tashqari O’zbekistonda faoliyat yuritayotgan dvalat ulushi 50 foiz va undan yuqori xissaga ega bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv ning samaradorligini belgilash va uni oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь.

20-Aprel, 2025-yil

Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-sonli Farmonida<sup>3</sup>: “...2022 yil 1 maydan boshlab kuzatuv kengashi a’zolaridan iborat Strategiya va investisiyalar qo’mitasi, Audit qo’mitasi, Tayinlovlar va haq to’lash qo’mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo’mitasi tashkil etilishi, kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo’yicha saylangan a’zolar faoliyati korxonada transformasiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investisiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag’larni jalb etish kabi mezonlar asosida baholanish” belgilangan. Shuning uchun, jahon amaliyotida sinalgan tajribalarni tatbiq etish va milliy korxonalar korporativ boshqaruvida raqamlashtirishni takomillashtirishning ilmiy asoslarini tadqiq etish ushbu dissertasiya mavzusining dolzarbliji hisoblanadi.

Asosan elektron tijorat, elektron hukumat tizimi, ishlab chiqarish jarayonlari va xizmat ko’rsatish sohalariga aqli texnologiyalarni joriy etish, “Aqli shahar”, “Xavfsiz shahar” tizimlarini yaratish hamda “narsalar Internetti” texnologiyalaridan keng foydalanish raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, davlat quyidagi jarayonlar orqali iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishni rag’batlantirishi mumkin:

- turli xil tashkilotlarni birlashtirgan umumiy texnologik platformalarning tashkilotchisi yoki ma’lum texnologik yechimlardan foydalanishga qo’yiladigan talablarni to’g’ridan-to’g’ri belgilaydigan regulyator vazifasini bajarishi kerak, chunki iqtisodiyotning barcha segmentlarida standart texnologik yechimlarni joriy etish jarayonlari, ularning keng tarqalishi mumkin emas;

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni tartibga soluvchi amaldagi me’yoriy-huquqiy bazani doimiy ravishda takomillashtirish va bunimuloqotlar rejimida va amalda yangi turdagি obyektlar va subyektlar bilan duchkeladigan foydalanuvchilar, ishlab chiquvchilar va xizmat ko’rsatuvchilarning fikrlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- elektron hukumat tizimini va elektron formatda ko’rsatiladigan davlat xizmatlari ro’yxatini ishlab chiqishni o’z ichiga olgan aloqalarni raqamlashtirishning umumiy jarayonining ishtirokchisiga aylanish;

- tashkilotlarda axborot tizimlarini, elektron xizmatlarni joriy etishni rag’batlantirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun soliqimtiyozlarini, shuningdek transchegaraviy onlayn savdoni joriy etish;

- kerakli miqdordagi AT-mutaxassislari va dasturchilarning o’zлari hamda doimiy ravishda yangilanib turadigan raqamli texnologiyalardan foydalanishga qodir malakali foydalanuvchilar tarkibini tayyorlash;

- kiber tahdidlardan xavfsizlikni, shuningdek raqamli iqtisodiyotda u yoki bu tarzda ishtirok etayotgan barcha subyektlar uchun ular to’playdigan, saqlaydigan va foydalanadigan ma’lumotlarning mumkin bo’lgan jinoiy harakatlardan himoyalanganligiga ishonchini ta’minlash;

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 апреддаги “Тадбиркорлик мухитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иктисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида” ПФ-101-сонли Фармон.

**“FAN, INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**  
**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi**

---

20-Aprel, 2025-yil

- xalqaro hamkorlikni kengaytirish va iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga ilg’or axborot texnologiyalarini kiritish va joriy etish uchun jozibali sharoitlar yaratish.

